

## SHAXS RIVOJLANISH JARAYONI, TARBIYASI VA UNING IJTIMOIYLASHUVI

Yorqinoy Qipchaqova Hamidjonovna

*FarDU, Sirtqi bo'lim, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada shaxs rivojlanish jarayoni, tarbiyasi va uning ijtimoiylashuvi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning tavsiyalari ifodalangan. Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ham o'z ifodasini topgan.*

**Kalit so'zlar:** *Individ preformizm, programmatik, professional, qobiliyat, tarbiya, stixiyali, obyekt.*

**Abstract:** *This article presents the recommendations of scientific research on the process of personality development, upbringing and socialization. The article also contains the scientific proposal and practical recommendations formulated by the author on this issue.*

**Key words:** *Individual preformism, programmatic, professional, ability, education, spontaneous, object.*

Odam-individ tug'ilishi bilan o'zida insoniy va shaxsiy xislatlarni shakllantira boshlaydi. Ikki va undan ortiq insonlar bilan muloqotda bo'lgandan keyin odamda shaxsiy xislatlar paydo bo'la boshlaydi. Demak, har bir tug'ilgan inson individid Odam.

Shaxsiy xislatlarga ega bo'lgan inson endi shaxsga aylana boshlaydi va aylanadi ham. Shaxslar odamlar taqdirini o'zgartira olish doirasiga, hajmiga qarab 1) oddiy, 2) buyuk shaxslar ijobiy va salbiyga bo'linadi.

Pedagogika fanining muhim metodologik muammolaridan biri bu shaxs tarbiyasi uning rivojlanishi muammosi hisoblanadi.

O'sib va rivojlanib boruvchi inson tarbiya obyekti hisoblanadi. Butun hayoti davomida insonning rivojlanish jarayoni davom etaveradi. Bu jarayonda turli o'zgarishlarni, jismoniy, ruhiy, miqdor va sifat o'zgarishlarni o'z boshidan kechirib boradi. Odam bolasining rivojlanishi bu muhim jarayon sanaladi. Bolalik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi.

Bola mana shu yillarda o'zgarishlar tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi, bunda unga maqsadga muvofiq berilayotgan tarbiya ta'sirida jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rinn egallaydi. Munosabat deganda faqat odamlar bilan aloqasi emas, balki tabiatga, jamiyatga, hayotga bo'lgan munosabatlar ham kiradi.

Shaxsning fazilatlarini to'g'ri aniqlash va bexato baholash uchun uni turli munosabatlarda va vaziyatlarda kuzatib ko'rish lozim. Ana shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi, ma'naviy qiyofasi, insoniy fazilatlari ro'yobga chiqadi.

Demak, shaxsni rivojlantirishni to'g'ri hal qilish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillarni, shaxsni xususiyatini yaxshi bilmoq kerak. Pedagogika fanida «SHAXS»

tushunchasi «INSON» tushunchasidan farqli u insonning ijtimoiy xususiyatlarini anglatadi. Bolaning kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l-atvorini shakllanishiga qanday omillar ta'sir etadi. Pedagogika fanida bolani rivojlanishiga 3 ta omillar:

- a) biologik;
- b) ijtimoiy;
- v) tarbiya omillari ta'sir etadi deb hisoblaydi.

Ko'p asrlik ana shu munozara zaminida bir-biriga qarama-qarshi ikki nuqtai nazar yana ikki oqim vujudga keldi.

1-oqim. Odam bolasini shaxs sifatida shakllanishida tabiiy biologik omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki bola ona qornidalik davrida avloddan o'tgan tug'ma xususiyatlarga rivojlanadi. Bular tarbiyanı rolini cheklab qo'yadilar. Bu oqimni biologik yo'nalish deb ataladi. Ularning namoyondalari Aristotel va Platonlardir.

2-oqim. XVI asr falsafasida vujudga kelgan Preformizm oqimi. Bu oqim namoyondalarining fikricha, odam bolasini ona pushtidaligidayoq bo'lajak shaxsiga xos barcha xususiyatlarga ega bo'ladi. Rivojlanish esa shu xususiyatlarning miqdoriy ko'payib borishidan iborat.

Bu oqim tarafdorlari naslning shaxs rivojlanishidagi roliga favqulodda yuksak baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini mutlaqo inkor etadilar.

Bu oqimning yana bir yo'nalishi XX asrda keng tarqalgan Bixevoirizm oqimidir.

Bixevoirizm oqimiga amerikalik pedagog va psixolog E.Torandayk asos soldi. Shaxsning barcha hususiyati, shu jumladan ongi va aqliy qobiliyati ham nasldan-naslga o'tadi deydilar. Bular ham tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta'sirini inkor etadi, uni shaxsning xususiyatlariga ta'sir etishdan ojiz deb bilishadi.

Bu oqimning yana amerikalik programmatik pedagoglar D.Dyun va A.Komboslar yoqlab chiqadilar. O'rta Osiyo allomalaridan A.N.Farobi inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: «Munosib inson bo'lishi uchun odamda ikkita imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim orqali nazariy kamolotga erishadi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir» - deydi.

Abu Ali ibn Sino «bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yaxshi tarbiya qilishi kerak. Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa oila baxtli bo'ladi» degan fikrni olg'a suradi.

Bola shaxsining rivojlanishiga: a) irlisyat, b) ijtimoiy muhit, v) tarbiya omillari ta'sir etadi. Bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta'siri deganda ota-onalarga o'xshaganligini ifodalovchi biologik belgilarni takrorlanishini tushunmoq kerak.

Har bir bola ota-onasidan meros shaklida ba'zi biologik sifatlarga (tana ranggi, sochi, ko'zi, bo'yi basti va h.k.) ega bo'lgan holda dunyoga keladi. bular jismoniy xususiyatlar. Fiziologiya va psixologiya fanining ko'rsatishicha inson bolasini tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror xil qobiliyatni ro'yoga chiqishi va rivojlanishiga ta'sir etadigan potensial imkoniyatlar ya'ni shaxs xususiyatlarini ifodalaydigan layoqat bilan tug'iladi.

Tug‘ma layoqat o‘z holicha rivojlana olmaydi, go‘yo u «mudroq» holatda bo‘lib, uning uyg‘onishi-rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Shuning uchun pedagogika fani, layoqatning namoyon bo‘lishi va qobiliyat sifatida rivojlanishi to‘la-to‘kis hayot sharoitiga va tarbiyaga bog‘liqdir degan g‘oyani yoqlaydi.

Inson kamolotiga ta’sir etadigan omillardan biri muhit deganda insonga stixiyali ta’sir etadigan tashqi voqealar kompleksi tushuniladi.

Bunga:

- A) Tabiiy muhit;
- B) Ijtimoiy muhit;
- V) Oila muhiti kiradi.

Tabiiy muhit so‘zsiz insonning hayot tarziga, xarakteriga va mehnat faoliyatiga ta’sir etadi. Markaziy tropik mintaqada yashayotgan odamlarni hayoti shimoliy zonada yashayotgan odamlarning turmush tarzidan farqlanadi. Bola ko‘z ochib ota-onasini, qarindoshlarini ko‘radi. Uning intensiv rivojlanish davri oila ta’sirida shakllanadi. Xalqimizda «Qush uyasida ko‘rganini qiladi» degan naql bekorga aytilmagan.

Bola kamolotida ijtimoiy muhit muhimdir. Ijtimoiy aloqasiz, odamlar bilan aloqa qilmasdan odam inson bo‘la olmaydi. Inson kamolotiga ijtimoiy muhitning ta’siri turli tarixiy davrda turlicha bo‘ladi, turli sotsial guruhlarga ham turlicha ta’sir etadi.

Shunday ekan, hozirgi zamon pedagogika fani muhitga, uning inson rivojlanishidagi ta’sirining roliga alohida e’tibor beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Kipchakova, Y.X., & Kodirova, G. A. (2020). Innovative Technologies In Modern Education. Теория и практика современной науки, (5), 29-31.
2. Kipchakova, Y. (2021). Methodological and didactic aspects of information and intellectual culture in the education of a developed generation. Экономика и социум, (6-1), 156-159.
3. KIPCHAKOVA, Y., ABDUXAMIDOVA, M., & RAXMONALIYEVA, M. The Impact Of Innovative Technologies In Improving Student Knowledge. СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Интернаука, 37-38.
4. Qipchaqova, Y.H. (2023). Bo ‘lajak o ‘qituvchilarning kasbiy faolligini rivojrantish. IQRO, 2(2), 485-493.
5. Qipchaqova, Y., & Hamdamovna, K. M. (2023). PEDAGOGIK MAHORAT VA UNING O ‘QITUVCHI FAOLIYATIDA TUTGAN O ‘RNI. IQRO, 2(2), 477-484.
6. Qipchaqova, Y. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASH SOHASIDAGI XORIJ MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TAJRIBALARI. Science and innovation, 1(B8), 106-111.
7. Rexmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o‘g‘li. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA O’QUV FAOLIYATI MOTIVATSİYASI

SHAKLLANISHINING BUGUNGI ZAMON BILAN BOG'LANGANLIGI (OLIY TA'LIM SOHASIDAGI SO'NGI O'ZGARISHLAR MISOLIDA). Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 764-770.

8. Rakhmatdjonov Shokhjahon Dilshodbek o'g'l //THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE IN PROVIDING THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF THE ATHLETE// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. International scientific online conference. Canada. Part 2, 23.01.2022. 1-3

9. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //SPORTCHI PSIXOLOGIK SALOMATLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ). Vol. 10, Issue 11, Nov.(2022). 117-121 pages.

10. QURBONOVA, S., & RAXMATJONOV, S. (2023). MAMLAKATIMIZ PSIXOLOGLARI ISHLARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATDA MUOMALA MUAMMOSINING TALQINI. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(5), 99-103.

11. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbeko'g'li //SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS// IQRO JURNALI № 2. 04.2023. 503-511 betlar.

12. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li, Vosiljonov Azizbek Boxodirjon o'g'li //XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. Vol. 1. № 12, 2022. 39-47 pages.

13. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA// International Journal of Economy and Innovation. Volume: 30. 2022. 66-70 pages.

14. Rakhmatdjonov Shokhjahon Dilshodbek o'g'li //PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE SPORTSMAN PERSONALITY DURING COMPETITIONS// IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. Vol. 2 No. 11 (2022). 215-221 betlar.

15. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi// American Journal of Social and Humanitarian Research, Vol. 3 No. 11 (2022). 256-259 pages.

16. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li //TOLERANTLIK SHAKLLANAYOTGAN SHAXS MODELINING TAVSIFI// International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH». VOLUME 2 / ISSUE 5 /2023. 761-764 pages.

17. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li. (2023). PSIXOLOGIYADA MOTIVATSIYA TURLARI, NAZARIYALARI VA TAHLILI. Научный Импульс, 1(10), 665-670.

18. Raxmatjonov, S. (2023). DESCRIPTION OF THE PERSONALITY MODEL FOR FORMING TOLERANCE. Modern Science and Research, 2(5), 761-764.

19. Odinakhan Rakhmanovna Parpieva, & Davlatov Hamidjon Dilshodjon ogl. (2023). HEALTH IS THE HIGHEST VALUE. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 760-763.
20. Xalimaxon G'anieva, Tojimamatov Jamshidbek //CHARACTER ACTENTATION IN ADOLESCENTS// International Journal for Innovative Engineering and Management Research Volume 10, Issue 04, Pages: 153-157.
21. H.Ganieva //SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF SELF-CONSCIOUSNESS OF STUDENTS// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Vol. 2 No. 4 (2021) 190-193 pages.
22. Фаниева Халимахон Ахматхоновна //IThe Study Of Socio-Psychological Problem Of Loneliness// Turkish Journal of Computer and Mathematics education Vol.12 No.12 (2021), 2580-2590
23. Фаниева Халимахон Ахматхоновна //Талаба ёшларнинг ўз-ўзини англашини ижтимоий психологик механизмлари// ЎзМУ ХАБАРЛАРИ. 2021 йил 1/3, 46-49 бетлар.
24. G'aniyeva Xalimaxon Axmatxonovna //PSYCHOLOGICAL FUNDAMENTALS OF THE SOCIAL ENVIRONMENT IN PERSONAL DEVELOPMENT// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Volume1 Issue02, May 2021. 717-724 pages.
25. Ganieva Khalimakhon Akhmatkhonovna //PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF GENIOLOGY ASSIGNMENT IN YOUNG PEOPLE// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) Vol. 9, Issue 12, Dec.(2021) 335-337 pages.
26. Ganieva Khalimakhon Akhmatkhonovna, Tojimamatov Jamshid //PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SUICIDAL BEHAVIOR OF MINORS// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) Vol. 9, Issue 12, Dec.(2021) 1053-1058 pages.
27. Фаниева Халимахон Ахматхоновна, Ж.Тожимаматов //Ёшлар – янги Ўзбекистон, янги Ренессанс бунёдкорлари// “Ёшлар – янги Ўзбекистон, янги ренесанс бунёдкорлари” мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари 2021 йил, 321-323 бетлар.
28. G'aniyeva, X., & Ahmadjonov, N. (2023). KICHIK MAKTAB YOSHIGAGI O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5), 166-172.
29. Ахматхоновна Фаниева, Халимахон ., & Сайдолимовна Закирова, Д. . (2022). ЎСМИРЛАРДА ХАРАКТЕР АКЦЕНТУАЦИЯСИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 548-553.
30. Khalimakhon Akhmadkhonovna Ganieva //PSYCHOPHYSIOLOGY OF ADDICTION OF NERVOUS PROCESSES AND RAPIDITY OF RECYCLING OF INFORMATION IN YOUTH// O'ZBEKİSTONDA FANLARARO İNNOVATSIYALAR VA İLMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 12-SON. 19.10.2022. 622-628 betlar.

- 
31. Пулатова, Гулноза //Theoretical analysis of the study of the phenomenon of bilingualism// Общество и инновации 2.6/S (2021): 200-204.
32. Pulatova, G.M. //WAYS TO INFLUENCE THE CHILD'S PSYCHE THROUGH FAIRY-TALE THERAPY// Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020.
33. Pulatova Gulnoza, Toshboltaeva Nodira, //Conflict logical Competence of the Teacher as A Condition for Positive Interaction in the Educational Environment// Eurasian Journal of Research, Development and Innovation. Volume 14| November, 2022. 14-17 pages.
34. Pulatova, G., & Muhammadjonov, J. (2023). 5-6 YOSHLI MAKTABGACHA YOSHDAG'I BOLALAR Ning NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAK VA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. Евразийский журнал академических исследований, 3(5 Part 3), 48-58.
35. Makhliyo Bakhtiyorovna Yuldasheva, Nodira Ibrokhimjanovna Toshboltaeva, Gulnoza Murodilovna Pulatova, Shokhista Kamoldinovna Mamajonova, Yokutkhon Urinbaevna Karimjanova // Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 4, 2021, Pag'es. 14552 – 14558.
36. Toshboltayeva Nodira, Mamajonova Shoxista, Pulatova Gulnoza, Karimianova Yoqutkhon, Djalolova Mohinur //Exploring the development of creative thinking in small school students// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE). Vol 14, Issue 02. 2022. 5701-5707 page